

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL  
EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
URGENCH STATE UNIVERSITY  
NAMED AFTER AL-KHORAZMI**

*On the right of manuscript*

U. D.C. 811.373.611.366.443

**Usmanova Zulayho Ilhombek qizi  
WORD FORMATION IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES**

**Dissertation  
for defending master's degree on specialty  
5A120102 – Linguistics (the English language)**



**Scientific supervisor:**

**f.f.n., dots. Ermetova J. I.**

**Urgench - 2016**

**THE MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
URGENCH STATE UNIVERSITY**

**Faculty:** Philology

**Department:** English language and literature

**Academic year:** 2014-2016

**Master student:** Usmanova Zulayho

**Scientific supervisor:** docent Ermetova J. I.

**Specialty:** 5A120102 – Linguistics (English)

**ANNOTATION OF MASTER DISSERTATION ON THE THEME  
“WORDFORMATION IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES”**

**Significance of the theme** is expressed on the one hand by the profound interest in learning lexicology and vocabulary which is widely used to demonstrate linguistic richness of the English and Uzbek languages in expressing different ideas, on the other hand by giving a detailed analysis of different types and ways of forming new words in the English and Uzbek languages. Moreover, the dissertation included more words which show the functional-semantic aspects and social linguistic features of English language's affixes by comparing Uzbek ones. Undoubtedly, passing the world of lexicology opens new windows toward getting familiar with literature, language and culture of those, who think, behave and look at the world in similar and/or different manners. Although going through many linguistic features seems much less problematic, catching what is going to be transferred through non-linguistic ones is the most problematic to deal with. With a speedy tempo of contemporary life and high rates at media time the usage of derived words in order to make the vocabulary of language more beautiful and rich becomes more important which brings about the topicality of this study.

**Aims and tasks of the work.** The aim of this research is based on a detailed study of the word formation of different system languages, and the structural patterns with them, differences between their structural, functional and semantic

properties.

According to this general aim the following particular **tasks** are put forward:

- to review of the theoretical research works done by English, Uzbek, Russian and other language linguists in accordance with the origin, sources and functions of word formation;
- to study and classify the phenomenon of the word formation as a linguistic element;
- to provide with the information about word formation in the different system languages;
- to analyze the theoretical investigation works belonged to the word formation done by Uzbek, English and Russian linguists;
- to analyze general characteristics of word formation on morphological structure;
- to analyze the functional-semantic features and aspects of word formation system of the English and Uzbek languages;
- to compare and mention similarities and differences between the English and Uzbek languages' word formation system;
- to research the practical value and significance of word formation in the process of language teaching.

**The matter and object of the research.** The object of the research consists of researching formation of new words by different ways in the English and Uzbek languages, studying the language as a system. Investigating the functional-semantic characteristics of the English and Uzbek affixes used to form new words is the matter of the work.

**The level of scientific newness of the outcomes of the research** is to analyze functional-semantic features of derived and compound words in English comparing with the Uzbek language, ways of formation of new words in both languages. Also, the classification of the affixes and their meaning, and the usage of them in different words are given in the work. The affixes in both English and

Uzbek languages are classified according to some features, and these features are counted in this work. In addition, besides affixation and compounding, there are given some other minor ways of word formation, such as conversion, blending and acronyms, and others.

**Practical importance and employment of the outcomes of the research. the** Outcomes of the research have a specific importance for the word formation system of the English and Uzbek languages. The results of the conducted research mean that the concept and its results may be usefully used in the lectures and seminars of general and comparative linguistics, cognitive linguistics, comparative typology, grammar and lexicology. In addition to that, it also can be very useful in learning Uzbek and English languages practically, master degree dissertations and writing final experience works, textbooks and many other literary works too. It will be very helpful material for the students who are interested in the deep analysis of word formation, the ways of creating new words, or the types of affixes in both English and Uzbek languages.

**The composition and structure of the work.** The work consists of 82 pages comprising introduction, 3 chapters, conclusion and bibliography.

**The following is the main outcomes of the completed work:**

- the functional aspects of the affixes in English and Uzbek were first studied on linguistic aspect
- the rule of word formation was established
- the morphemic structure of the word was analysed
- the investigations done on word formation were learned and discussed
- the problems of word formation in English and Uzbek languages were determined
- the usage of the affixes and their functional-semantic aspects were analyzed
- similarities and differences of word formation system in both languages were found and discussed

**The brief and generalized expression of the conclusions and suggestions.** Studying word formation, especially, compounding, conversion and

affixation, and the functional-semantic analysis of affixes especially in different system languages, by comparatively should be continued further. And this investigation can be studied in comparative linguistics, comparative typology, grammar and lexicology.

Scientific supervisor:

Master student:



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**Fakultet:** Filologiya

**Kafedra :** Ingliz tili va adabiyoti

**O'quv yili:** 2014-2016

**Magistratura talabasi:** Usmanova Zulayho

**Ilmiy rahbar:** Ermetova J. I.

**Mutaxassisligi:** 5A120102 - Lingvistika (ingliz tili)

**“TURLI TIZIMLI TILLARDA SO'Z YASALISHI” MAVZUSIDAGI  
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI**

**Mavzuning dolzarbliligi** ingliz va o'zbek tillarining so'z boyligini namoyish qilishda keng miqyosda ishlatiladigan leksikasi va lug'at tarkibini o'rganish bilan belgilanishi barobarida, ushbu tillarda yangi so'z yasash usullari va turlarini chuqur tahlili bilan ifodalaniladi. Shuningdek, ingliz tili affikslarini o'zbek tili affikslari bilan funksional-semantik jihatdan solishtirish katta ahamiyat kasb etadi. Shubhasizki, leksikologiya sohasini o'rgangan har b' b' kishi uchun adabiyot, til va madaniyat eshiklari ochiladi. Fan-texnika katta tezlik bilan rivojlangan pir paytda yangi so'zlarning paydo bo'lishi hamda ularning paydo bo'lish usullarini o'rganish tanlangan mavzuning dolzarbligini bildiradi.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Tadqiqot ishining maqsadi turli tizimli tillarning so'z yasali sh tizimini o'rganish va ularning tuzilishi, funksiyasi va semantikasidagi farqli va o'xshash tomonlarini tahlil qilishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:




- ingliz, o'zbek va rus olimlari tomonidan so'z yasali shi xususida qilingan tadqiqot ishlarini o'rganib chiqish;
- so'z yasali shi tushunchasini tilshunoslikning bir elementi sifatida o'qish va turlarga bo'lish;
- turli tizimli tillarning so'z yasali shi hodisasi haqida ma'lumotlar to'plash;

- ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional xususiyatlari lingvistik jihatdan birinchi bor tahlil qilindi;
- so'z yasash qoidasi ishlab chiqildi;
- so'zning morfologik strukturasi tahlil qilindi;
- so'z yasalishi bo'yicha qilingan ilmiy ishlar o'rganildi va tahlil qilindi;
- ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasash tizimidagi muammolar tahlil qilindi;
- affikslarning ishlatilishi va ularning funkional-semantik xususiyatlari tahlil qilindi;
- turli tizimli tillarning so'z yasash tizimidagi o'xshash va farqli jihatlari o'rganildi va tahlil qilindi.

**Xulosa va takliflarning qisqacha va umumlashtirilgan ifodasi.** Turli tizimli tillarning so'z yasash tizimini, ayniqsa, qo'shma so'zlar, konversiya va affiksatsiyani va ularning funksional-semantik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o'rganish davom ettirilsa ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarining markazi bo'ladi. Bu ish qiyosiy tilshunpslik, qiyosiy tipologiya, grammatika va leksikologiya fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ilmiy rahbar:

Magistratura talabasi:

 f.f.n, dots. Ermetova J. I.  
 Usmanova Z. I.  


**Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti magistratura 5A120102 –  
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bitiruvchi magistranti Usmanova  
Zulayho Ilhombek qizining “Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi”  
mavzusidagi dissertatsiyasiga ilmiy rahbar tomonidan**

**TAQRIZ**

Hozirgi kunda tilimizda yangidan-yangi soʻzlar paydo boʻlmoqda, ularning koʻpchiligi xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy va ijtimoiy sohalarda aloqa oʻrnatilganligi sababli paydo boʻlmoqda, desak mubolagʻa boʻlmaydi. Yangi soʻzlarning qanday sabablar orqali paydo boʻlganligi koʻpchilikka maʼlum, lekin ularning qanday yasalayotganligi, ayniqsa turli tizimli tillarning soʻz yasalish tizimini oʻrganish dolzarb masala sanaladi. Shunday ekan, magistrant talaba, Usmanova Zulayho tanlagan “Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi” mavzusining qanchalik dolzarb ekanligi ayon boʻladi. shu paytgacha magistrant talaba tomonidan tanlangan “Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi” mavzusi maxsus tadqiqot obyekti boʻlmagan. Tanlangan mavzu yuzasidan faqat ingliz tili soʻz yasalishi rus tili, arab va nemis tillari bilan qiyosiy oʻrganilgan, lekin oʻzbek tili bilan qiyosiy oʻrganilmagan. Oʻzbek tilshunosligiga oid ishlarda esa ayrim qaydlar qilinganligi mavzuning naqadar dolzarbligini bildiradi.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari ham muallif tomonidan aniq va ravshan qilib yoritilganligini taʼkidlash mumkin. Dissertatsiya ishning asosiy maqsadi ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz yasalish tizimining oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash barobarida, soʻz yasovchi qoʻshimchalarning funksional-semantik jihatdan tahlilini yoritish koʻzda tutilgan boʻlib, bunda har bir tilning oʻziga xosligini namoyon qilishdan iborat ekanligi taʼkidlangan. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- Ingliz va oʻzbek olimlari tomonidan soʻz yasalishi haqida yozilgan asarlarni nazariy jihatdan tahlil qilish;
- Ingliz va oʻzbek tillarida soʻz yasalishini funksional-semantik jihatdan tahlil qilish;
- Ingliz va oʻzbek tillaridagi affikslarning turlarini tahlil qilish;

- Ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasallashining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u tilshunoslikning xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan barcha turdagi tadqiqot ishlari uchun nazariy manba vazifasini o'tashi mumkin.

Magistrant tadqiqot natijasida quyidagilarni asosiy ilmiy yangilik sifatida qayd etgan: ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasovchi qo'shimchalarni funksional-semantik jihatdan tahlil qilib, shaxs oti yasovchi qo'shimchalar narsa oti ham yasash yoki yasamasligiga ko'ra uchta guruhga bo'lib, birinchi guruhga shaxs oti hamda narsa oti yasovchi qo'shimchalarni kiritgan bo'lsa, ikkinchi guruhga faqat shaxs oti yasovchi qo'shimchalarni, uchunchi guruhga esa faqat narsa oti yasovchi qo'shimchalarni kiritib tahlil qilgan.

Dissertatsiya ishining natijalari muallif tomonidan ilmiy jamoatchilikka ilmiy manba - "Ilm sarchashmalari" jurnalida e'lon qilingan "Comparatively analysis of word formation in the English and Uzbek languages" sarlavhali maqolada o'z bayonini topgan va qo'yilgan muammo asoslab berilgan (2016 yil -1 son). Shuningdek, shu yilning mart oyida "Ilm sarchashmalari" jurnalida e'lon qilingan "Suffixation is a way of word formation in the English language" mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi (2016 yil -3 son).

Malakaviy ish atroflicha tuzilgan reja asosida amalga oshirilgan. Unda, av-valo, so'z yaslash tizimi haqidagi nazariyalar, olimlarning fikrlari asoslab berilgan. Ikkinchi bobda esa so'zning morfologik strukturasi, so'z yasash qoidalari va so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional semantic tahlili xususida fikr yuritilgan. Uchinchi bobda esa yangi so'z yasash yo'llari - affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya haqida ma'lumotlar berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi ingliz tilida yozilgan bo'lib, 82 varaqdan iborat. Xulosa qismida nazariy va amaliy bilimlar umumlashtirilib, umumiy xulosalar keltirilgan.

Ilova qismida ko'plab yasama so'zlarning ikkala tildagi namunalari muallif tomonidan tayyorlangan.



**Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti magistratura 5A120102 –  
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bitiruvchi magistranti Usmanova  
Zulayho Ilhombek qizining “Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi” mavzusidagi  
dissertatsiyasiga**

**TAQRIZ**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach chet tillarini, ayniqsa, ingliz tilini oʻrganishga katta ahamiyat berilayotgan, xorijiy mamlakatlar bilan aloqa va oʻzaro hamkorlik munosabatlari yaxshi yoʻlga qoʻyilayotgan bir paytda tilimizda va ingliz tilida yangi paydo boʻlayotgan soʻzlarni toʻgʻri tushunish va toʻgʻri anglash uchun ularni oʻz tilimizdagi soʻzlarning obrazli xususiyatlari bilan taqqoslab tahlil qilish zaruriyati paydo boʻladi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, shu paytgacha Usmanova Zulayho Ilhombek qizi tomonidan tanlangan “Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi” mavzusi maxsus tadqiqot obyekti boʻlmagan. Tanlangan mavzu yuzasidan faqat ingliz tilida soʻz yasalishi rus tili, arab va nemis tillari bilan qiyosiy oʻrganilgan, lekin oʻzbek tili bilan qiyosiy oʻrganilmagan. Oʻzbek tilshunosligiga oid ishlarda esa ayrim qaydlar qilinganligi mavzuning naqadar dolzarbligini bildiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi va dissertatsiya amaliy natijalari asoslab berilganligi haqida gapiradigan boʻlsak, ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz yasalish tizimi alohida-alohida oʻrganilgan, ammo ushbu tillardagi soʻz yasovchi qoʻshimchalarning funksional-semantik tahlili qiyosiy oʻrganilmagan. Muallif oʻz ishida ana shular haqida fikr yuritib, bu borada ilmiy va amaliy ish olib borgan tilshunoslar ishlarini tahlilga tortadi.

Magistrant tadqiqot natijasida quyidagilarni asosiy ilmiy yangilik sifatida qayd etgan: ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz yasovchi qoʻshimchalarni funksional-semantik jihatdan tahlil qilib, shaxs oti yasovchi qoʻshimchalar narsa oti ham yasash yoki yasamasligiga koʻra uchta guruhga boʻlib, birinchi guruhga shaxs oti hamda narsa oti yasovchi qoʻshimchalarni kritgan boʻlsa, ikkinchi guruhga faqat

shaxs oti yasovchi qo`shimchalarni, uchunchi guruhga esa faqat narsa oti yasovchi qo`shimchalarni kiritib tahlil qilgan.

Dissertatsiya ishining natijalari muallif tomonidan ilmiy jamoatchilikka ilmiy manba □ “Ilm sarchashmalari” jurnalida e’lon qilingan “Comparatively analysis of word formation in the English and Uzbek languages” sarlavhali maqolada o’z bayonini topgan va qo’yilgan muammo asoslab berilgan (2016 yil -1son ). Shuningdek, shu yilning mart oyida “Ilm sarchashmalari” jurnalida e’lon qilingan “Suffixation is a way of word formation in the English language” mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi.

Malakaviy ish atroflicha tuzilgan reja asosida amalga oshirilgan. Unda, avvalo, so`z yaslash tizimi haqidagi nazariyalar, olimlarning fikrlari asoslab berilgan. Ikkinchi bobda esa so`zning morfologik strukturasi, so`z yasash qoidalari va so`z yasovchi qo`shimchalarning funksional semantic tahlili xususida fikr yuritilgan. Uchinchi bobida esa yangi so`z yasash yo`llari – affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya haqida ma’lumotlar berilgan.

Ilova qismida ko`plab yasama so`zlarning ikkala tildagi namunalari muallif tomonidan tayorlangan.

Muallif dissertatsiya tayyorlash jaroyonida o`z oldiga qo`ygan maqsadiga erishgan, shuning uchun uni tugallangan ish sifatida baholash mumkin.

Xarakterli tomoni shundaki, muallif, ishni yozishdan avval mavzuga tegishli adabiyotlar bilan atroflicha tanishib, ularni o`rganib chiqqan va o`zi egallagan bilimi doirasida fikr yurititishga harakat qilgan. Shuning uchun to`plangan materialni bayon etish malakasini egallagan. Ishning tili sodda va tushunarli, ilmiy uslubga to`la mos keladi, sababi talaba ilmiy uslubga xos barcha jihatlarni ishga solishga imkoni boricha harakat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy qiymati shundan iboratki, tadqiqot natijalaridan umumta’lim maktablari ingliz va o`zbek tillarining so`z yasash tizimini o`rganishda foydalanish mumkin.. Shu asnoda, magistrantga boshlagan ilmiy ishini kelajakda davom ettirish istagini bildiramiz.

Umuman olganda, dissertatsiya ishi O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta

maxsus ta'lim vazirligi tomonidan qo'yilgan barcha talablarga javob beradi, shuning uchun uni tugallangan va nihoyasiga yetgan, "a'lo" darajada bajarilgan tadqiqot ishi sifatida baholayman.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq

Davlat Universiteti dotsenti



**Al-Xorazmiy nomli Urganch Davlat Universiteti magistratura 5A120102 –  
lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi bitiruvchi magistranti Usmanova  
Zulayho Ilhombek qizining “Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi” mavzusidagi  
dissertatsiyasiga**

**TAQRIZ**

Shu paytga qadar magistrant tanlagan Turli tizimli tillarda soʻz yasalishi” mavzusi alohida tadqiqot sifatida oʻrganilmagan. Binobarin, oʻzbek va ingliz tillaridagi soʻz yasalish tizimi haqida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan boʻlsa ham, biroq ularda bir-biriga qardosh boʻlmagan ikkala tilning soʻz yasalish tizimi monografik planda qiyosiy tadqiq qilinmagan. Shu maʼnoda mazkur mavzuning kun tartibiga qoʻyilishi maʼlum va muayyan darajada dolzarblik kasb etadi. Sababi, hozirgi kunda oʻrganishga talabi kuchayib borayotgan ingliz va oʻzbek tillarida paydo boʻlayotgan yangi soʻzlar qay yoʻsinda va qanday qoida asosida paydo boʻlayotganligini oʻziga xos aniqlash muhim masala hisoblanadi. Bu muammoni hal qilishda katta bilim va malaka talab qilinadi.

Har qanday ilmiy tadqiqot ishlab chiqarish bilan amaliy jihatdan bogʻliq boʻlsagina oʻzining yaxshi bahosini oladi. Ana shu jihatdan olganda, dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati kattadir. Tadqiqot natijalaridan oliy oʻquv yurtlarining filologiya va chet tillar fakultetlari, oʻrta maxsus, kasb-hunar kollejlarida, nafaqat oʻzbek tilining soʻz yasalish tizimini oʻrganishda, balki ingliz tilining soʻz yasalish tizimini oʻrganishda ham, shu bilan birgalikda ikkala tildagi qoʻshimchalarning funksional-semantik jihatdan oʻrganishda, ularning xususiyatlarini tahlil qilish va izohlashda, leksikologiya fanidan maʼruza oʻqishda foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari ham muallif tomonidan aniq va ravshan qilib yoritilganligini taʼkidlash mumkin. Dissertatsiya ishning asosiy maqsadi ingliz va oʻzbek tillaridagi soʻz yasalish tizimining oʻxshash va farqli jihatlarini aniqlash barobarida, soʻz yasovchi qoʻshimchalarning funksional-semantik jihatdan tahlilini yoritish koʻzda tutilgan boʻlib, bunda har bir tilning

o'ziga xosligini namoyon qilishdan iborat ekanligi ta'kidlangan. Buning uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish nazarda tutilgan:

- ingliz va o'zbek olimlari tomonidan so'z yasalishi haqida yozilgan asarlarni nazariy jihatdan tahlil qilish;
- ingliz va o'zbek tillarida so'z yasalishini funksional-semantik jihatdan tahlil qilish;
- ingliz va o'zbek tillaridagi affikslarning turlarini tahlil qilish;
- ingliz va o'zbek tillaridagi so'z yasalishining o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u o'zbek va ingliz tillari xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlari uchun nazariy manba vazifasini o'tashi mumkin.

Dissertatsiya ishining natijalari muallif tomonidan "Ilm sarchashmalari" jurnalida ilmiy jamoatchilikka e'lon qilingan "Comparatively analysis of word formation in the English and Uzbek languages" sarlavhali maqolada o'z bayonini topgan va qo'yilgan muammo asoslab berilgan (2016 yil 1-son). Shuningdek, shu yilning mart oyida "Suffixation is a way of word formation in the English language" mavzusidagi maqolasi bilan ishtirok etdi (2016 yil 3-son) "Ilm sarchashmalari" jurnalida chop qilindi.

Tadqiqotchi mavzuni ilmiy yoritish maqsadida, dastlab, unga aloqador nazariy adabiyotlarni o'rganib, ulardan o'rinli foydalangan. Mavzuga taalluqli materiallarni to'plashga harakat qilgan. To'plangan materiallarni tizimlashtirib, ilmiy mushohada qilish asnosida ko'zlagan maqsadiga erisha olgan. Muallif buning uchun, birinchi navbatda, so'z yasalishi tushunchasi, unga olimlar tomonidan berilgan ta'riflarini tahlilga tortgan va ularni tadrijiy ravishda ko'rsata bilgan. Shu bilan birgalikada so'z yasash yo'llari haqida, ayniqsa, affiksatsiya, kompozitsiya va konversiya haqida keng ma'lumotlar keltirgan. Eng muhimi, so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional-semantik xususiyatlarini tahlil qilgan.

Dissertatsiya ishini amalga oshirish nizomda belgilanganidek, tadqiqotninig "Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, mavzuning o'r-

ganilish darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqot predmeti va obyekti, uning ilmiy ahamiyati haqida atroflicha fikr yuritilgan.

Ishning birinchi bobida tadqiqot olib borilgan obyekt bo'yicha qisqacha ma'lumot berish bilan birgalikda, mavzuning umumnazariy masalalari tadqiqidagi kamchliklar aniqlangan.


Tadqiqotning ikkinchi bobida muammoning hozirgi ahvoli, so'zning morfologik strukturasi, va shu strukturaga ko'ra so'zning turlari, o'zak va qo'shimcha haqida ta'riflar keltirilgan, so'z yasash qoidasi ishlab chiqilgan. Shuningdek, so'z yasovchi qo'shimchalarning funksional-semantik tahlili qilingan.

Uchinchi bobda so'z yasash usullari tahlili ko'rsatilgan. Uchinchi bob dissertatsiya mazmunining asosiy g'oyasini ifodalash vazifasini amalga oshiradi.

Ishning yakunida umumiy xulosalardan tashqari, har bir bobning oxirida qisqacha xulosalar berilgan, bular hammasi muallif tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar va takliflar mujassamlashtirilganligini va ko'zlangan maqsadga erishilganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot yuqori ilmiy saviyada bajarilgan. U Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan magistrlik dissertatsiyalariga qo'yilgan talablarga to'la javob beradi. Uning muallifi magistr darajasini olishiga munosib, deb hisoblayman.

Taqrizchi:



Filologiya fakulteti dekani,  
f.f.n., dots. Jumaniyozov Z. A.